AHOLINING BANK XIZMATLARIDAN FOYDALANISH DARAJASI: STATISTIK TAHLIL

Shakirova Nigora Axralovna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

PhD, dotsent, Iqtisodiy statistika kafedrasi

Tel: +998 94 364 00 50

E-mail: shakirova0130@gmail.com

ORCID: https://orcid.org/0009-0006-5025-4764

Abdumuxtorova Dilorom

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" fakulteti talabasi

Tel: +998 90 302 60 17

E-mail: diloramxonabdumuxtorova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston aholisining bank xizmatlaridan foydalanish darajasi ***2026-2026-yillardagi statistik ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan. Tadqiqotda Markaziy bank ma'lumotlari, Jahon bankining Global Findex 2026 bazasi hamda 2026-yil uchun*** e'lon qilingan Milliy moliyaviy inklyuziya indekslari o'zaro solishtirildi. Dinamik qatorlar, nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar hamda tarkibiy tahlil usullaridan foydalanildi. Hisob-_____ shuni ko'rsatdiki, muomaladagi bank kartalari soni 2023-yil boshidagi 34,2 milliondan 2026-yil boshida 68,27 milliongacha o'sgan, biroq zanjirli o'sish sur'ati 135,1 foizdan 110,1 foizgacha sekinlashgan. Hisob raqamiga ega kattalar ulushi Global Findex bo'yicha 60 foiz, Markaziy bankning ma'muriy ma'lumotlari bo'yicha esa 86 foizni tashkil etadi. Bankda jamg'aradigan kattalar ulushi atigi 10 foiz bo'lib, bu foydalanish chuqurligi

qamrovdan ortda qolayotganini bildiradi. Maqola oxirida aholining omonat va kredit xizmatlaridan foydalanishini kengaytirish bo'yicha takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: moliyaviy inklyuziya, bank xizmatlari, bank kartalari, masofaviy bank xizmatlari, statistik tahlil, dinamik qator, omonatlar, O'zbekiston.

Abstract

This article examines the extent to which the population of Uzbekistan uses banking services in 2023-2026, drawing on Central Bank statistics, the World Bank's Global Findex 2025 database and the national financial inclusion indices published for 2025. Time-series analysis, relative and average indicators and structural analysis are applied. The number of bank cards in circulation doubled from 34.2 million to 68.27 million between the start of 2023 and the start of 2026, but the chain growth rate slowed from 135.1% to 110.1%. Account ownership among adults is 60% according to the demand-side survey and 86% according to supply-side administrative data, while only 10% of adults save at a bank. The results suggest that the depth of use lags behind the breadth of access. Policy proposals for expanding savings and credit use are offered.

Keywords: financial inclusion, banking services, bank cards, remote banking, statistical analysis, time series, deposits, Uzbekistan.

Kirish

So'nggi yillarda O'zbekistonda bank tizimi tez sur'atlar bilan raqamlashmoqda: bank kartalari ommalashdi, mobil ilovalar orqali to'lovlar kundalik odatga aylandi. Biroq kartaga yoki ilovaga ega bo'lish bank xizmatlaridan real foydalanish bilan bir xil emas. Hisob raqami ochilgan, lekin unda jamg'arma saqlanmaydigan yoki kredit olinmaydigan holatlar ko'p uchraydi. Shu sababli aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasini baholashda faqat mavjud infratuzilma emas, balki xizmatlardan amalda foydalanish chuqurligi ham o'lchanishi kerak.

Tadqiqotning maqsadi - aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasini statistik ko'rsatkichlar tizimi yordamida baholash, uning dinamikasi va tarkibidagi asosiy tafovutlarni aniqlash. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi: bank kartalari

va to'lov infratuzilmasi dinamikasini hisoblash; masofaviy xizmatlar hajmini tahlil qilish; talab va taklif tomonidagi ko'rsatkichlarni solishtirish; omonat va kredit xizmatlaridan foydalanish tarkibini baholash.

1. Bank xizmatlaridan foydalanishni statistik baholash metodologiyasi

Xalqaro amaliyotda moliyaviy xizmatlardan foydalanish uch o'lchov bo'yicha baholanadi: xizmatlarga kirish imkoniyati (access), ulardan amalda foydalanish (usage) va xizmat sifati (quality). O'zbekiston Markaziy banki 2025-yil uchun e'lon qilgan milliy indekslarda ham aynan shu uch komponent qo'llangan bo'lib, ular to'lovlar, kredit va omonatlar yo'nalishlari bo'yicha hisoblangan. Kattalar uchun indeks 59 ball, kichik va o'rta biznes uchun 49 ball bo'ldi [1, 2].

Ko'rsatkichlarning manbasi bo'yicha ikki guruhni ajratish muhim. Taklif tomonidagi ma'lumotlar banklar va to'lov tashkilotlari hisobotlariga tayanadi (kartalar, terminallar, hisob raqamlar soni). Talab tomonidagi ma'lumotlar esa aholi o'rtasida o'tkaziladigan so'rovlardan olinadi, masalan, Jahon bankining Global Findex bazasi. Ikkala guruh bir-birini to'ldiradi, lekin ularni bevosita solishtirishda ehtiyot bo'lish zarur, chunki bir kishida bir nechta hisob raqami yoki karta bo'lishi ma'muriy ko'rsatkichlarni oshirib yuboradi.

Maqolada quyidagi statistik usullar qo'llanildi: dinamik qatorlarning mutlaq o'sishi, zanjirli va bazisli o'sish sur'atlari, o'rtacha yillik o'sish koeffitsiyenti (geometrik o'rtacha), nisbiy intensivlik ko'rsatkichlari hamda tarkibiy tahlil. Aholi soni hisob-kitoblarda taxminan 38 million kishi deb yaxlitlab olindi.

2. Bank kartalari va to'lov infratuzilmasi dinamikasi

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga muomalada 68,27 million bank kartasi bo'lgan [3]. 1-jadvalda 2023-2026-yillar dinamikasi va hisoblangan ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. Muomaladagi bank kartalari dinamikasi

Sana	Kartalar soni, mln	Mutlaq o'sish, mln	Zanjirli o'sish sur'ati, %	Bazisli sur'at (2023=100), %

1.01.2023	34,2	-	-	100,0
1.01.2024	46,2	12,0	135,1	135,1
1.01.2025	62,0	15,8	134,2	181,3
1.01.2026	68,27	6,27	110,1	199,6

Manba: Markaziy bank ma'lumotlari [3, 4] asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, uch yil ichida kartalar soni deyarli ikki baravar (199,6 foiz) oshgan. O'rtacha yillik o'sish koeffitsiyenti (68,27 / 34,2)^(1/3) formulasi bo'yicha 1,259 ga teng, ya'ni kartalar soni yiliga o'rtacha 25,9 foizga ko'paygan. Ayni paytda o'sish bir tekisda bo'lmagan: 2024 va 2025-yillarda zanjirli sur'atlar 135 foiz atrofida bo'lgan bo'lsa, 2025-yilda mutlaq o'sish atigi 6,27 million kartani tashkil etib, sur'at 110,1 foizgacha pasaygan. Bu holat karta bozorining to'yinish bosqichiga yaqinlashayotganini ko'rsatadi. Markaziy bank indeksiga ko'ra kattalarning 83 foizi bank kartasiga ega [1], kartalarning aholi jon boshiga nisbati esa taxminan 1,8 ni tashkil etadi. Demak, kartalar sonining keyingi o'sishi yangi mijozlar hisobiga emas, ko'proq mavjud mijozlarning qo'shimcha kartalari hisobiga bo'ladi.

To'lov infratuzilmasi ko'rsatkichlari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval. To'lov infratuzilmasi va POS-terminallar orqali aylanma

Ko'rsatkich	1.01.2025	1.01.2026	Mutlaq o'zgarish	O'sish sur'ati, %
Bankomat va axborot kiosklari, dona	29 909	40 090	+10 181	134,0
POS-terminallar, dona	426 225	430 762	+4 537	101,1
POS orqali operatsiyalar hajmi, trln so'm	326,7	460,25	+133,55	140,9
Bitta terminalga o'rtacha aylanma, mln so'm	766,5	1 068,5	+302,0	139,4

Manba: [3, 4] asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadvalga ko'ra, terminallar soni deyarli o'zgarmagan (101,1 foiz), lekin ular orqali o'tgan to'lovlar hajmi 40,9 foizga oshgan. Natijada bitta terminalga to'g'ri keladigan yillik aylanma 766,5 million so'mdan 1,07 milliard so'mgacha ko'tarilgan. Bu naqd pulsiz to'lovlarning kengayishi asosan yangi terminallar ochilishi hisobiga emas, mavjud terminallardan intensiv foydalanish hisobiga yuz berayotganini bildiradi. Har 1000 aholiga taxminan 11,3 ta POS-terminal va 1,05 ta bankomat yoki kiosk to'g'ri keladi. Bitta terminalga esa o'rtacha 158 ta karta to'g'ri keladi (68,27 mln / 430 762).

3. Masofaviy bank xizmatlari va raqamli to'lovlar

Masofaviy bank xizmatlari foydalanuvchilari soni 2023-yil 1-yanvarda 30 million kishini tashkil etgan bo'lib, ularning 28,8 milliondan ortig'i jismoniy shaxslar edi [5]. 2024-yil sentabrida bu ko'rsatkich 48,4 millionga yetgan va bir yillik o'sish 23,1 foizni tashkil etgan [6]. Ikki nuqta o'rtasidagi o'sish 61,3 foizni, 20 oy davomidagi o'rtacha yillik sur'at esa taxminan 33 foizni tashkil etadi (hisob-kitob muallif tomonidan bajarilgan).

3-jadval. Raqamli bank xizmatlari ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Qiymat	Davr
Masofaviy xizmat foydalanuvchilari, mln	30,0	1.01.2023
Masofaviy xizmat foydalanuvchilari, mln	48,4	2024-yil sentabr
Jismoniy shaxslarning mobil bank operatsiyalari, trln so'm	645,6 (2024-yilga nisbatan 1,6 marta)	2025-yil
Elektron hamyonlar soni, mln	24,8	2025-yil
Internet-bankdan foydalanuvchi kattalar ulushi, %	77	2025-yil

Manba: [1, 5, 6, 7].

Raqamli xizmatlarning ommalashuvi mobil aloqa ko'rsatkichlari bilan ham mos keladi: Global Findex ma'lumotlariga ko'ra kattalarning 82 foizi mobil telefonga, 69 foizi smartfonga ega [8]. Demak, telefon egalarining taxminan 84 foizi (69 / 82) smartfondan foydalanadi va bu raqamli bank xizmatlari uchun keng baza yaratadi. Shu bilan birga,

Markaziy bank ma'lumotlariga ko'ra masofaviy moliyaviy xizmatlar bozorining 70 foizdan ortig'i beshta yirik bank qo'lida to'plangan [9]. Bu bozor konsentratsiyasi yuqori ekanini va raqobat muhitini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

4. Qamrov va foydalanish chuqurligi: talab va taklif ko'rsatkichlarini solishtirish

Aholining bank xizmatlaridan foydalanishini baholashda eng muhim ko'rsatkich - hisob raqamiga ega kattalar ulushi. Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda bu ulush 44 foiz atrofida bo'lgan [10], so'nggi bazada esa 60 foizga yetdi, ya'ni 16 foiz punktga oshdi. Yangi bazada ayollar (61 foiz) erkaklardan (59 foiz) biroz oldinda turibdi [8]. Markaziy bankning ma'muriy ma'lumotlariga asoslangan indeksda esa kattalarning 86 foizi asosiy bank hisob raqamiga ega, ayollar orasida ham xuddi shu ko'rsatkich qayd etilgan [2]. 4-jadvalda ikki manba ko'rsatkichlari solishtirilgan.

4-jadval. Global Findex 2025 va Markaziy bank indeksi ko'rsatkichlari, %

Ko'rsatkich	Global Findex 2025 (so'rov)	Markaziy bank indeksi 2025 (ma'muriy ma'lumot)
Hisob raqamiga ega kattalar	60	86
shu jumladan ayollar	61	86
Bank kartasiga ega kattalar	-	83
Naqd pulsiz xarid qiladiganlar	38	-
Bankda jamg'aradiganlar / omonat yoki muddatli hisobga egalar	10	4
Rasmiy manbadan qarz olganlar	12	-

Manba: [2, 8]. Eslatma: omonat ko'rsatkichlari ta'rifi ikki manbada farq qiladi, shuning uchun ularni faqat taxminiy solishtirish mumkin.

Ikki manba o'rtasidagi 26 foiz punktlik tafovut (86 va 60) metodologik farqdan kelib chiqadi. Ma'muriy ma'lumotlar ochilgan hisob raqamlarni qayd etadi, so'rov esa respondentning o'zi hisobdan foydalanishini ko'rsatadi. Bir oila a'zosi nomidagi hisobdan

boshqalarning foydalanishi, faol bo'lmagan hisoblar va bir kishida bir nechta hisob bo'lishi bu farqni tushuntiradi. Findex tahlilida ham hisobni oila ichida boshqa shaxs nomi orqali yuritish shakli kambag'al aholining rasmiy hisobga ega bo'lmasligi sabablaridan biri sifatida qayd etilgan [8]. Markaziy bank ham keyingi bosqichda indeksga talab tomonidagi so'rovlarni qo'shishni rejalashtirgan [2].

Foydalanish chuqurligini baholash uchun Findex ko'rsatkichlarini hisob egalari ulushiga nisbatan hisoblab chiqdik (5-jadval). Hisob-kitobda bu operatsiyalarni bajaradigan barcha shaxslar hisob raqamiga ega deb taxmin qilingan, shuning uchun natijalar taxminiy hisoblanadi.

5-jadval. Foydalanish chuqurligi ko'rsatkichlari

Ko'rsatkich	Kattalar ulushi, %	Hisob egalariga nisbatan, %
Hisob raqamiga ega	60	100,0
Naqd pulsiz xarid qiladi	38	63,3
Hisob-kitoblarni onlayn yoki telefon orqali to'laydi	22	36,7
Rasmiy manbadan qarz olgan	12	20,0
Bankda jamg'aradi	10	16,7

Manba: [8] ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Jadval bank xizmatlaridan foydalanishning aniq piramidasini ko'rsatadi: to'lov xizmatlaridan hisob egalarining qariyb uchdan ikki qismi foydalanadi, kredit xizmatlaridan beshdan biri, omonat xizmatlaridan esa oltidan biri. Global Findex ma'lumotlariga ko'ra, umumiy jamg'arma qilganlar ulushi 32 foiz bo'lsa-da, ularning ko'pchiligi mablag'ni bankdan tashqarida saqlaydi [8]. Markaziy bank indeksida ham shu holat tasdiqlangan: kattalarning 86 foizida asosiy hisob bo'lsa-da, omonat yoki muddatli hisobga egalari atigi 4 foiz, ayollar orasida esa 6 foiz [2]. Ayollarning faol kredit hisobiga egalik ulushi 19 foizni tashkil etadi.

Hududiy jihatdan ham tafovut bor. Markaziy bank indeksida qishloq va olis hududlar bo'yicha moliyaviy inklyuziya bahosi 49 ball deb berilgan, bu kattalar uchun umumiy

bahodan (59 ball) 10 ball past. Xabarda asosiy to'siq hisob raqami ochish bosqichida ekani, qishloq aholisining atigi 21 foizi bank hisobiga ega ekani ko'rsatilgan [2]. Bu ko'rsatkich milliy o'rtacha (86 foiz) bilan keskin farq qilgani uchun uni hisoblash metodikasini Markaziy bankning to'liq hisobotidan tekshirish maqsadga muvofiq.

5. Aholining kredit va omonat xizmatlaridan foydalanishi

Bank tizimi balansi ko'rsatkichlari foydalanish chuqurligini pul hajmida baholash imkonini beradi. 2026-yil 1-iyul holatiga banklarning kredit portfeli 642,8 trillion so'mni, omonatlar hajmi esa 473,8 trillion so'mni tashkil etgan; omonatlar bir yilda 33 foizga oshgan, kreditlar esa 12 foizga [11]. Kredit portfelining 235,9 trillion so'mi (37 foiz) aholiga berilgan kreditlarga to'g'ri kelgan. 2026-yil 1-avgustga kelib jismoniy shaxslarga kreditlar 239,8 trillion so'mga yetdi, yil boshiga nisbatan 8,9 foizga oshdi [12]. Shu davrda kreditlarning omonatlarga nisbati o'tgan yilning shu davridagi 159,9 foizdan 133,6 foizgacha, ya'ni 26,3 foiz punktga kamaydi [12]. Bu banklarning resurs bazasi kredit berish sur'atidan tezroq o'sayotganini ko'rsatadi.

6-jadval. Jismoniy shaxslarga berilgan kreditlar tarkibi (1.08.2026)

Kredit turi	Hajmi, trln so'm	Ulushi, %
Ipoteka kreditlari	88,1	36,7
Jismoniy shaxslarga mikrokreditlar	46,7	19,5
Boshqa kreditlar (hisoblangan qoldiq)	105,0	43,8
Jami	239,8	100,0

Manba: [12] ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari.

Tarkibiy tahlil ipoteka kreditlari aholi kreditlarining eng yirik alohida turi ekanini ko'rsatadi (36,7 foiz). 2026-yilning yanvar-avgust oylarida banklar 59,2 ming kishiga jami 18,3 trillion so'm ipoteka krediti bergan [13]. Bu bitta qarz oluvchiga o'rtacha taxminan 309 million so'm kredit to'g'ri kelishini bildiradi (18 300 mlrd / 59 200). Mikrokreditlar ulushi 19,5 foiz bo'lib, ularning hajmi yil boshidan 15,5 foizga o'sgan [12], bu kichik summali kreditlarga talab yuqori ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bank aktivlari 2026-

yil avgustiga kelib 1 016,6 trillion so'mga yetgan va davlat ulushi bo'lgan banklar aktivlarning 62 foizini nazorat qiladi [12]. Bu aholi xizmatlari sifati va tariflariga davlat banklarining ta'siri kuchli ekanini ko'rsatadi.

6. Aniqlangan muammolar va takliflar

Tahlil natijalariga asoslanib, aholining bank xizmatlaridan foydalanish darajasini oshirish uchun quyidagi yo'nalishlarni taklif etamiz:

1) oddiy va tushunarli jamg'arma mahsulotlarini kengaytirish. Hisob egalarining atigi oltidan biri bankda jamg'arishi omonat mahsulotlarining aholi uchun jozibadorligi yetarli emasini ko'rsatadi;

2) qishloq hududlarida hisob raqamlari ochish jarayonini soddalashtirish, masofaviy identifikatsiya va agent banking xizmatlarini rivojlantirish;

3) moliyaviy savodxonlikni oshirish, ayniqsa ayollar va yoshlar uchun. Findex so'rovida hisob ochmagan kattalarning katta qismi undan foydalanishda yordam kerakligini bildirishi xalqaro miqyosda aniqlangan [14];

4) faol foydalanish ko'rsatkichlarini (oyiga kamida bir marta operatsiya bajaradigan hisoblar ulushi) rasmiy statistikaga kiritish, chunki faqat ochilgan hisoblar soni haqiqiy foydalanishni aks ettirmaydi;

5) talab tomonidagi so'rovlarni muntazam o'tkazish va ma'muriy ma'lumotlar bilan solishtirib borish;

6) raqamli xizmatlar kengayishi bilan bog'liq firibgarlik va kiberxavfsizlik xatarlarini kamaytirish, mijozlar huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish [7].

Xulosa

O'tkazilgan statistik tahlil O'zbekistonda aholining bank xizmatlariga kirish imkoniyati sezilarli kengayganini ko'rsatdi: bank kartalari soni uch yilda ikki baravar oshib 68,27 millionga yetdi, masofaviy xizmatlar foydalanuvchilari 48,4 millionga ko'paydi, POS-terminallar orqali aylanma bir yilda 40,9 foizga o'sdi. Biroq kartalar sonining o'sish

sur'ati 135,1 foizdan 110,1 foizgacha pasaygan, ya'ni oddiy kengayish imkoniyatlari tugab bormoqda.

Ikkinchidan, qamrov ko'rsatkichlari foydalanish chuqurligidan ancha yuqori. Ma'muriy ma'lumotlar bo'yicha kattalarning 86 foizi hisob raqamiga ega bo'lsa, so'rov natijalariga ko'ra bu ulush 60 foiz; bankda jamg'aradiganlar 10 foiz, omonat yoki muddatli hisobga egalar 4 foiz, ayollar orasida faol kredit hisobiga egalar 19 foiz. Uchinchidan, qishloq hududlarida moliyaviy inklyuziya darajasi past bo'lib qolmoqda. Shu sababli keyingi siyosat yangi kartalar sonini oshirishdan ko'ra, omonat va kredit xizmatlaridan foydalanishni kengaytirishga, hududiy va gender tafovutlarini qisqartirishga hamda foydalanish faolligini o'lchaydigan statistik tizimni takomillashtirishga qaratilishi lozim.

Tadqiqotning cheklovi shundaki, turli manbalarning ta'riflari va davrlari to'liq mos kelmaydi, shuning uchun ularni solishtirish tendensiyani baholashga xizmat qiladi, aniq miqdoriy xulosa chiqarish uchun esa talab tomonidagi yangi so'rovlar kerak bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Milliy moliyaviy inklyuziya indekslari, 2025-yil (pilot hisob-kitob). cbu.uz/en/press_center/reviews/4376369/

2. Alliance for Financial Inclusion. Uzbekistan launches its National Financial Inclusion Indices. 2026-yil 17-sentabr. afi-global.org

3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Chiqarilgan bank kartalari, POS-terminallar, bankomatlar va o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kiosklari to'g'risida ma'lumot (2026-yil 1-iyul holatiga). cbu.uz/en/statistics/paysistem/

4. Yuz.uz. O'zbekistonda bank kartalari soni 68 millionidan oshdi (Markaziy bank ma'lumotlari, 1.01.2026). 2026-yil 10-fevral. yuz.uz

5. PLUSworld.ru. Число пользователей ДБО в Узбекистане возросло в полтора раза (данные ЦБ РУз на 1.01.2023). plusworld.ru

6. Ranking.kz. Банки Узбекистана активно развивают дистанционные каналы обслуживания. 2024-yil 4-noyabr. ranking.kz

7. Strengthening cyber resilience in the digital transformation of commercial banks: lessons for Uzbekistan from global practice (Markaziy bank 2025-yil yillik hisoboti ma'lumotlari asosida). Zenodo, 2026. doi.org/10.5281/zenodo.22663061

8. Global Findex 2025 - Uzbekistan at a Glance. GFRID; World Bank. The Global Findex Database 2025. worldbank.org/en/publication/globalfindex

9. Anhor.uz. Beshta yirik bank masofaviy moliyaviy xizmatlar bozorining 70 foizidan ortig'ini nazorat qiladi. 2025-yil 23-oktabr. anhor.uz

10. Kapital.uz. Рост популярности цифровых финансов в Узбекистане (Global Findex 2021 ma'lumotlari). 2023-yil 20-oktabr. kapital.uz

11. UzDaily.uz. Uzbekistan Banking Assets Exceed 1 Quadrillion Soums. 2026-yil 28-iyul. uzdaily.uz

12. UzDaily.uz. Uzbek Banks' Assets Surpass 1 Quadrillion Soums (1.08.2026 holatiga). uzdaily.uz

13. Trend.az. Uzbekistan's mortgage lending reaches $1.5B in 8M2026. 2026-yil 18-sentabr. trend.az

14. Visa Economic Empowerment Institute. World Bank Global Findex 2025 insight. corporate.visa.com